

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№ 9 (3) - 2023**

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I9Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 9 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Ақтамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**  
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Mamajonov Rahimjon Akramovich*  
“VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY  
HUKMDORLARNING O‘RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR  
TAHLILI ..... 10-16
- Облобердиев Жасурбек Косим угли*  
МЕРЫ НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX  
ВВ ..... 17-22

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Турсунов Бекмухаммад Омонович*  
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕЗОН ВА  
КЎРСАТКИЧЛАРИ ..... 23-34
- Курпаяниди Константин Иванович*  
ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМ  
УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ ..... 35-44
- Ahmedov Shohjaxon*  
O‘ZBEKISTONDA SHAKANA SAVDONI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI ..... 45-51
- Кулибоев Азамат Шоназарович*  
БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 52-62
- Рўзиев Абдумалик Ортиғалиевич*  
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШДА МИҚДОРИЙ ВА  
АХБОРОТ ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯСИ ..... 63-73
- Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna*  
TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 74-80
- Davronov Istamxo‘ja Olimovich*  
МЕНМОНХОНА ХИЗМАТЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИ ВА СИФАТИНИ ВАНОЛАШ  
USULLARI ..... 81-86
- Маматов Бахадир Сафаралиевич*  
ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ  
МАСАЛАЛАРИ ..... 87-96
- Шолдаров Дилшод Азимиддин ўғли*  
КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА  
ТЎЛАШ ТАРТИБИ ..... 97-104
- Баратов Махсудали Назиралиевич*  
МИКРОМОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ –  
ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ..... 105-116

<i>Ergashev Islom Ismoilovich</i> KESKIN RAQOBAT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....	117-127
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИ МАМЛАКАТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ .....	128-136
<i>Эшонкулов Акмал Кудратович</i> ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	137-142
<i>Астанов Шерзод Рустамович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИХАЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	143-150
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Abdullayev Ibodulla Abdullayevich</i> YOSHLARNI MILLIY G'URUR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI .....	151-155
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> BAHS-MUNOZARALARDA QO'LLANILADIGAN TUZOQLAR VA MANIPULYATSION (SPEKULYATIV) USULLAR .....	156-164
<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> BARQAROR RAQOBAT USTUNLIGI-RAQOBATBARDOSHLIK OMILI .....	165-174
<i>Allayarova Marhabo Mavlonovna</i> UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLAR BADIY IJODINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI .....	175-179
<i>Рахманов Баҳодир</i> СИНЕРГЕТИК ТАФАККУР: ФАЛСАФИЙ МЕРОСИМИЗНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ .....	180-186
<i>Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich</i> ABU ALI IBN SINONING XORAZM MA'MUN AKADEMISIDAGI FAOLIYATI .....	187-191
<i>Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich</i> JAMIYATDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI .....	192-197
<i>Azimov Ashirali Mehmonboyevich</i> XOTIN-QIZLAR GENDER MA'RIFATINING IJTIMOY BARQARORLIKKA TA'SIRI .....	198-202
<i>Azimov Sherzod</i> PHILOSOPHICAL REFLECTION ON THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SPORT IN SOCIETY .....	203-207
<i>Абдурахмонович Хасан Иброхимович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИННОВАЦИОН ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТУВОР ЎНАЛИШЛАРИ .....	208-216

**10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi*

QUMAN TOPISHMOQLARINING O'ZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI ..... 217-223

*Тешабаева Дилфуза Муминовна, Абдухалилова Гулбаҳор Карабаевна*

ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД СЎЗ ВА ИБОРАЛАРНИ ПРЕФИКСЛАР ЁРДАМИДА

ЯСАЛИШИ ..... 224-230

*Abdinazarov Uktam Qushoqovich*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI.. 231-236

*Axmedova Shaxodat Maxmutovna*

O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI..... 237-241

*Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich*

JAHON TILSHUNOSLIGIDA PAREMALAR TADQIQI ..... 242-246

*Vositov Otabek Toxirjonovich*

TABIATNING ATMOSFERA HODISASI UMUMIY MA'NOSI VA LEKSIK SEMANTIKA

GURUHLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI ..... 247-253

*Нодир Раҳматуллаев*

НАЗАР ЭШОНҚУЛ НАСРИДА ШАРПА АРХЕТИПИНИНГ ТАЛҚИНИ ..... 254-260

**12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР***Мамасобиров Давронбек Эрназарович*

ВАТАНДОШЛАР БИЛАН ИШЛАШ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ..... 261-270

*Urakov Djahongir Rajabovich, Sharipovasror Safar o'g'li*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI

INSTITUTLARNING HUQUQIY ASOSLARI ..... 271-276

**13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ***Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*

OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV

KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH ..... 277-281

*Umarova Zaxro Abduraxim qizi*

TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH

(THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI ..... 282-287

*Kadirov Ramz Turabovich*

TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA OID BILIM VA KO'NIKMALARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING SPETSIFIK TEXNOLOGIYALARI (DARS JARAYONIDAGI

MASHG'ULOTLAR MISOLIDA) ..... 288-295

*Khabiba Madaminovna Jurabekova*

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LISTENING IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE

COMPETENCE OF STUDENTS IN RUSSIAN LESSONS ..... 296-302

<i>Nishonov Akmal Obidovich, Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich</i> KLAUSTERLI O'ZARO TA'SIR SHAROITIDA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI MODELASHTIRISH MASALALARI .....	303-310
<i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i> MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI .....	311-316
<i>Utkirov Nusrat Kamilovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLI TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH .....	317-322
<i>Yulbarsova Xurshida</i> BO'LAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK JIHATLARI .....	323-329
<i>Baychayev Fazliddin Xusenovich</i> BO'LAJAK KON-METALLURGIYA SANOATI MUTAXASSISLARINING ELEKTROSTATIKAGA OID NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH .....	330-335
<i>Muminov Ulmas Ravshanqulovich</i> O'ZBEKISTONDA "MAHALLA INSTITUTI" NING MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH – ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI .....	336-341
<i>Tajibayeva Ma'mura Tojidinovna</i> AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TA'LIMOTLARINI O'RGANISH ASOSIDA TALABALARDA G'OYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH .....	342-346
<i>Askarova Zulayxo</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI .....	347-352
<i>Akhmadjonova Diyora Dilshod qizi</i> EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THROUGH ONLINE PLATFORMS .....	352-362
<i>Jumaniyazova Go'zal</i> OLIIY O'QUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA O'RGATISH METODIKASI .....	363-367
<i>Xusaiova Leyla Yunusova</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ: ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ .....	368-373
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i> МАТЕМАТИК КРЕАТИВ ТАВСИФДАГИ MASALALARNING BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOG'LAB SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA ROLI .....	374-379
<i>To'xtasinov Muhammadjon</i> PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING O'RNI .....	380-384



*Eshnazarov Murod Karimovich*

GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA TA`LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISH

IMKONIYATLARI .....385-391

12.00.00- Юридик фанлар

**UraKov Djahongir Rajabovich**

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
Yuridik fakulteti Maxsus huquqiy fanlar  
kafedrası o'qituvchisi  
[udjahongir@gmail.com](mailto:udjahongir@gmail.com)

**Sharipov Asror Safar o'g'li**

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
Yuridik fakultet 1-bosqich talabasi  
[Asrorsharipov777@gmail.com](mailto:Asrorsharipov777@gmail.com)

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUIJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING HUQUQIY ASOSLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari haqidagi qarashlar, fuqarolik jamiyati institutlarining Konstitutsiya va boshqa normativ hujjatlarda mustahkamlangan huquqiyasoslari masalalari tahlil etilgan. Fuqarolik jamiyatiga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiyasoslari.

**UraKov Djahongir Rajabovich**

Teacher of the Department of special legal Sciences of the Faculty  
of Law of Samarkand State University named after Sh.Rashidov

**Sharipov Asror Safar ogli**

Faculty of Law of Samarkand State University  
named after Sh.Rashidov, Stage 1 student

## **LEGAL BASIS OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**Abstract.** This article analyzes the views of civil society, civil society institutions, the legal framework of civil society institutions, enshrined in the Constitution and other normative acts. Suggestions and recommendations were made to improve the legislation on civil society.

**Keywords:** Keywords: civil society, civil society institutions, non-governmental organizations, public associations, legal framework of civil society institutions.

**Ураков Джахонгир Раджабович**

Преподаватель кафедры специальных юридических наук  
юридического факультета Самаркандского государственного

университета имени Ш.Рашидова

**Шарипов Асрор Сафар оглы**

Самаркандский государственный университет имени Ш.Рашидова  
юридический факультет Студент 1-го курса

## **ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**Аннотация.** В данной статье проанализированы взгляды на гражданское общество, институты гражданского общества, вопросы правовой основы институтов гражданского общества, закрепленные в Конституции и других нормативных актах. Даны предложения и рекомендации по совершенствованию законодательства о гражданском обществе.

**Ключевые слова:** правовые основы гражданского общества, институтов гражданского общества, НПО, общественных объединений, институтов гражданского общества.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N35>

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Davlat boshqaruvini takomillashtirish, huquq ijodkorligi faoliyatini samaradorligini oshirish, qabul qilinayotgan qonunlarning ijrosini ta'minlash, davlat boshqaruvida fuqarolarning ishtiroki va rolini oshirish, shuningdek qonun ijodkorligi jarayonida xalqning ishtirokini ta'minlash va qabul qilinayotgan hujjatlarda jamiyat fikrini inobatga olish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar shular jumlasidandir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek:

Biz Yangi O'zbekistonni mard va olijanob xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug'vor niyatni o'z oldimizga qo'yganmiz. Bu borada "Jamiyat – islohotlar “ tashabbuskori” degan yondashuv kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda.[1]

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad shubhasiz, Konstitutsiyamiz muqaddimasida qayd etilganidek insonparvar demokratik davlat barpo etishdir. Demokratiya qaror topgan davlatlardagina fuqarolik jamiyatini barpo etish, fuqarolik jamiyati institutlarini erkin va qonuniy faoliyat yuritishini kafolatlash mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Shuni alohida ta'kidlashimiz joizki, fuqarolik jamiyati va fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi uchun yaxlit qabul qilingan ta'rif yuridik adabiyotlarda ham, mamlakatimiz qonunchiligida ham mavjud emas. Shunday bo'lsada, bir qator huquqshunos olimlar tomonidan yuqoridagi tushunchalarga ta'rif berib o'tilgan.

Jumladan, huquqshunos olim Odilqoriyevga ko'ra, fuqarolik jamiyati — har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy — madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyat. [2]

Yana bir huquqshunos olimning fikricha, fuqarolik jamiyati- qonun, axloq, insonparvarlik va adolat prinsiplari hurmat qilinadigan erkin, huquqiy demokratik, yuksak madaniyatga erishgan jamiyatdir. Yana bu aralash iqtisodiyotga ega bo'lgan ko'p ukkladli

raqobatga asoslangan jamiyat, tashabbusga asoslangan tadbirkorlik, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining oqilona muvozanati ta'minlangan jamiyatdir. [3]

Umuman, I.N.Matuzov fikricha, fuqarolik jamiyati fuqarolar, ularning birlashmalari va mulkdor sinfi manfaatlarini, xohish va istaklarini o'zida aks ettirgan davlat va siyosatdan tashqi ( iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, oilaviy, diniy ) munosabatlar majmuidir.

Binobarin, fuqarolik jamiyati keng qamrovli va ko'p qirrali tushuncha bo'lganligi uchun unga ilmiy manbalarda ko'plab ta'riflar berilgan bo'lsa-da, hozirgi kunda fuqarolik jamiyati haqida biron-bir umume'tirof etilgan ta'rifni topish qiyin. [4]

**Muhokama.** Demak, biz yuqorida fuqarolik jamiyatiga berilgan tavsiflarni ko'rib chiqdik. Endi fuqarolik jamiyati institutlariga to'xtalib o'tamiz. Fuqarolik jamiyati institutlari deganda, demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, fuqarolarning salohiyatlarini ro'yobga chiqarishga, ularning madaniy, sotsial-iqtisodiy faolligini oshirishga, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladigan nodavlat (notijorat) tashkilotlari nazarda tutiladi. [5]

Fuqarolik jamiyati institutlari aynan fuqarolik jamiyatining mohiyatini va uning mavjudligini namoyon etadigan, jamiyat shakllanishi va rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shadigan demokratik institutlardir. [6]

Fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslari — ushbu institutlarning qonuniy faoliyat yuritishi, o'z nizom va ustavlarida belgilangan maqsad va vazifalarni bajarishlarini huquqiy jihatdan kafolatlovchi normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlari huquqiy asoslarini belgilab beruvchi qonun hujjatlarini turli mezonlar asosida tasniflash va guruhlash mumkin. Xususan, tadqiqotchi olim D.Xolmanova nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tizimini quyidagicha tasniflagan:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan normalar;
- O'zbekiston Respublikasi kodekslarida belgilangan normalar;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlari:
  - a) universal tipdagi qonunlar;
  - b) maxsus tipdagi qonunlar;
- qonunosti hujjatlari;
- xalqaro hujjatlar. [7]

Fuqarolik jamiyati institutlarining dastlabki huquqiy asoslari Konstitutsiyamiz normalarida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Jamoat birlashmalari" bobidagi normalarda fuqarolik jamiyati institutlarning huquqiy asoslari mustahkamlangan. Xususan, 56-62-moddalarda jamoat birlashmalari tushunchasi, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar singari fuqarolik jamiyati institutlari haqidagi normalar keltirilgan. Mazkur bobdagi 56-moddada qanday turdagi tashkilotlar jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etilishi belgilangan bo'lib, unga ko'ra: O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi. [8]

Konstitutsiyaning 57- moddasida qaysi turdagi fuqarolik jamiyati institutlari tuzilishi mumkin emasligi haqida qoidalar aks etgan. Mazkur qoidalar quyidagicha:

- konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi;
- respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi;
- urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi;
- xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi;
- harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi;
- maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi. [9]

Siyosiy partiya, kasaba uyushmalari, ijtimoiy harakatlar va boshqa turdagi fuqarolik jamiyati institutlari tashkil qilinayotganda asosiy qonunda belgilanayotgan ushbu rahbariy prinsiplarga qat'iy amal qilish lozim.

Fuqarolik jamiyati institutlari huquqiy asoslari Konstitutsiya va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining qator kodekslarida ham keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining xodimlarning asosiy mehnat huquqlari belgilangan 16-moddasida xodimlarning muhim fuqarolik jamiyati instituti hisoblangan kasaba uyushmalariga birlashish huquqi belgilangan bo'lib, unga ko'ra: har bir xodim kasaba uyushmalariga hamda xodimlar va mehnat jamoalarining manfaatlarini ifoda etuvchi boshqa tashkilotga birlashish huquqiga egadir.

Ushbu kodeksning 17-moddasida esa ish beruvchilarning asosiy huquqlari sanab o'tilgan bo'lib, ular qatorida ish beruvchining jamoat birlashmalari tuzish va bunday birlashmalarga a'zo bo'lish huquqi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 73-78-moddalarida tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi normalar keltirib o'tilgan bo'lib, matlubot kooperativi (73-modda), jamoat birlashmalari (74-modda), jamoat fondlari (75-modda), muassasalar (76-modda), yuridik shaxslar birlashmalari (77-modda), fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining (78-modda) faoliyatini belgilovchi normalar shular jumlasidan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat bilan bog'liq normalar mavjud. Bular qatoriga 216-moddada belgilangan jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish, 216-1-moddada g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash, 216-2-moddada ko'rsatilgan diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish, shuningdek 217-moddadagi yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish to'g'risidagi normalarni aytib o'tishimiz mumkin.

Fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslari nafaqat Konstitutsiya va kodekslar balki, maxsus va universal tipdagi qonunlar bilan belgilab qo'yilgan. Ushbu qonunlarga:

- O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonuni (26.12.1996 );
- O'zbekiston Respublikasining "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonuni (15.02.1991 );
- O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni ( 14.04.1999 );
- O'zbekiston Respublikasining "Jamoat fondlari" to'g'risida"gi qonuni (29.08.2003 );
- O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni (01.05.1998);

- O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni (03.01.2007 );
- O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuni (14.04.1999);
- O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi qonuni (06.12.2019);
- O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonuni (30.04.2004);
- O'zbekiston Respublikasining "Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida"gi qonuni va boshqa maxsus tipdagi qonunlar kiradi.

**Natijalar.** Sanab o'tilgan qonun hujjatlaridan "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi va "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunlar universal tipdagi qonunlar sirasiga kiradi. Chunki, ushbu qonun hujjatlari orqali fuqarolik jamiyati institutlarining deyarli barcha turlari bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tartibga solinadi. Xususan, "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonunda qaysi tashkilotlar jamoat birlashmasi sifatida e'tirof etilishi hamda ushbu qonun fuqarolik jamiyati institutlari bilan bog'liq aynan qaysi munosabatlarga tatbiq etilishi belgilab berilgan. Qonunning 1-moddasida jamoat birlashmasida quyidagicha ta'rif berilgan:

O'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir.

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi.

Moddaning 3-qismida ushbu qonun qaysi institutlarga nisbatan tatbiq etilmasligi mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra:

Ushbu Qonun tijorat maqsadlarini ko'zlaydigan yoxud boshqa korxonalar va tashkilotlar foyda (daromad) orttirishiga ko'maklashadigan kooperativ tashkilotlarga hamda boshqa tashkilotlarga, diniy tashkilotlarga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, shuningdek tashkil etish va faoliyat ko'rsatish tartibi boshqa qonunchilik bilan belgilanadigan o'zga organlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

"Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunga ko'ra nodavlat notijorat tashkiloti deganda — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti tushuniladi.

Demak, ushbu ikki qonun hujjati fuqarolik jamiyati institutlari bilan bog'liq umumiy munosabatlarni tartibga soladi. Alohida toifaga kiruvchi institutlar (siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va diniy tashkilotlar) maxsus tipdagi qonunlar bilan tartibga solinadi, ushbu qonunlar yuqorida sanab o'tildi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishini kafolatlovchi huquqiy asoslaridan so'nggisi qonunosti hujjatlari (Prezident farmoni, qaror va farmoyishlari,

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqalar.) va Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlardir.

**Xulosa.** Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, fuqarolik jamiyati institutlari davlat tomonidan tashkil etilmagan, daromad olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib qo‘ymagan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashuvchi, ularning ijtimoiy, madaniy, siyosiy, ma‘naviy ehtiyojlarini birgalikda qondirish uchun tuzilgan demokratik institutlardir. Fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslarini, ularga faoliyat yuritishi kafolatini beruvchi normativ huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi ijtimoiy munosabatlar vujudga kelishi fuqarolik jamiyati institutlariga oid qonunchilikni ham takomillashtirishni taqozo etmoqda. Qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirib o‘tishimiz mumkin:

- qonun hujjatlarida “fuqarolik jamiyati” va “fuqarolik jamiyati institutlari” tushunchalariga aniq ilmiy ta’rif berish;

- mazmunan bir xil bo‘lgan va tartibga solish predmeti o‘xshash hujjatlarni xususan, “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi va “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi hujjatlarini yagona qonunga birlashtirish;

- yoki Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zarur shart- sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida Nodavlat notijorat tashkilotlar kodeksini qabul qilish ;

- qonun hujjatlarini takomillashtirishda ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va milliy qonunchilikka tatbiq etish.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Fuqarolik Jamiyati.2019. - volume 16. -Issue 3(59). - 53 b.
2. Odilqoriyev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. -172 b.
3. Xolmanova D.R. O‘zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarning jamoat birlashmalari tizimidagi o‘rni. Dis. ... yur.fan nom..- Toshkent,2012.-156b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: 2021
5. Исломов З. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Раҳмонқулов,академик, ю.ф.д., проф., - Ҳ.Бобоев, ю.ф.д., проф. - Т.:адолат, 2007.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Узбекистон стратегияси [Матн] / - Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти,2021,-20 б.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).